



**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2023- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 131,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 84,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,3 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 13,8 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 46,8 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 2,9 %ga o'sishi kuzatildi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 18,6 %ga kamayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,009 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar

FHI,% da



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 056,2 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,3 %ini tashkil etdi.

2022- yil yanvar


95,5 %

2023- yil yanvar

93,3%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,03 %ni (2022- yilning yanvar oyida – 0,02 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 34,0 %ni (2022- yilning yanvar oyida – 35,6%), o'rta-quyi texnologiyali – 3,1 % (2022- yilning yanvar oyida – 2,4 %) va quyi texnologiyali – 56,1 % (2022- yilning yanvar oyida – 57,5%)ni tashkil etdi.

■ 2023- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 35,0 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 79,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 126,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,4 % (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 83,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,8 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 72,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 71,5 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *

Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)




Maxsus yengil avtomobillar




O'simlik yog'i (tozalangan)



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Xo'jalik sovuni



2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 8 194,6 tonna (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 7,1 % ga oshgan), paxta chigiti 16 847,8 tonna (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 5,0 % ga kamaygan), 2 035,5 tonna paxtadan yigirilgan ip (4,4 % oshgan), 3 287 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (10,0 % kamaygan), 1 516 dona maxsus yengil avtomobil (13,3 % ga kamaygan), o'simlik yog'i 53,3 tonna (95,4 % kamaygan) hamda 6 512,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (91,8 % bo'lgan) ishlab chiqarilish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	3652	3287	-365
Maxsus yengil avtomobillar, dona	1749	1516	233
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	1949,0	2035,5	86,5
Paxta tolasi,tonna	7653,5	8194,6	541,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	7093,8	6512,3	-581,5
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	1168,0	53,3	-1114,7

Yanvar, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,5 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 65,6 % va ishlab chiqarish hajmi 225,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,3 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,7 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 58,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 123,1 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 82,4 %ni, ishlab chiqarish hajmi 327,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 151,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyiga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 56,8 %ni va ishlab chiqarish hajmi 4,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2021- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,03 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,03 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 31,2 %ni va ishlab chiqarish hajmi 0,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar oyida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,8 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 72,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,7 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 67,1 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 202,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar oyida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 174,3 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %ni, fizik hajm indeksi 42,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar oyida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 35,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,3 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 35,0 %ni, fizik hajm indeksi 79,8%ni hamda ishlab chiqarish hajmi 369,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 %ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 146,8 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	4,5	116,6	112,1
Issqlik energiyasi, ming gkal	15,6	14,0	-1,6
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	168500,0	108640,0	-59860,0

Yanvar, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,1 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	622321,0	505469,0	-116852,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	8518564,0	9095193,0	576629,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	1812000,0	1448105,0	-363895

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 6,8 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,8%ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 20,1% ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 614,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 89,7 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 54,2 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar

49,2%

2023- yil
yanvar

46,2%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar

50,8%

2023- yil
yanvar



53,8%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 57,4 %ni, Urganch shahrida 15,5 %ni va Xonqa tumanida 6,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (89,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (127,1 %), Xiva shahrida (120,0 %), Xonqa tumanida (127,5 %), Hazorasp tumanida (115,1%), Gurlan tumanida (135,0%) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 57,4 %ni, Urganch shahrida 15,5 %ni va Xonqa tumanida 6,2 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 76,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 7,8 %ni, Xiva shahrida 3,1 %ni tashkil etdi.

348,0


mlrd so'm

2022-yil yanvar

330,2


mlrd so'm

2023-yil yanvar




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi

53,8%




2022- yil

88,5%



2023- yil

94,9%




o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 35,9 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 24,2 %ni, Xonqa tumanida 10,1 %ni tashkil etdi.





2022-yil yanvar



2023-yil yanvar



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 43,2%, shuningdek, Urganch shahrida 12,9 %ni, Shovot tumanida 6,6 %ni, Xonqa tumanida 6,2 %ni, Yangiariq tumanida 6,2%ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2022- yil


yanvar

1 113,0 mlrd so'm

2023- yil

yanvar

1 131,9 mlrd so'm



110,5 %

2022- yil

84,6 %

2023- yil

FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (8 543,3 ming so'm), Urganch shahrida (985,0 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (401,9 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



ming so'm
o'sish sur'ati

Xorazm viloyati

2022- yil

yanvar

583,1 ming so'm

2023- yil

yanvar

583,1 ming so'm



108,8 %


2022- yil

83,2 %

2023- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 191,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,9 %ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati

2022- yil

yanvar

140,7 mlrd soʻm

2023- yil

yanvar

191,8 mlrd soʻm



16,9 %

2022- yil

16,9 %

2023- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 316,3 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 6 156,5 ming so'mni, Urganch shahrida 641,3 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2022- yil

yanvar

358,7 ming so'm

2023- yil

yanvar

316,3 ming so'm



99,3 %

2022- yil

88,2 %

2023- yil

Xorazm viloyati	88,2	316,3
Urganch shahri	125,0	641,3
Xiva shahri	117,8	176,5
Bog'ot tumani	90,2	75,0
Gurlan tumani	132,9	106,7
Qo'shko'pir tumani	95,1	49,8
Urganch tumani	106,5	124,2
Hazorasp tumani	113,6	46,5
Tuproqqal'a tumani	74,6	6 156,5
Xonqa tumani	125,3	198,2
Xiva tumani	85,6	51,4
Shovot tumani	111,3	78,3
Yangiariq tumani	81,0	79,3
Yangibozor tumani	88,2	78,2

ming so'm

o'sish sur'ati

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 665 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 834 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,9 %) Urganch shahriga, 516 tasi (11,1 %) Urganch tumaniga, 443 tasi (9,5 %) Qo'shko'pir tumaniga, 401 tasi (8,6 %) Xonqa tumaniga va 403 tasi (8,6 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.

